

YASHIL IQTISODIYOTNI RAG‘BATLANTIRISHDA SOLIQ MUNOSABATLARINING TUTGAN O‘RNI

G‘ulomov Bahromjon Adhamjon o‘g‘li

(mustaqil izlanuvchi) Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Amanov Arkam Mirzayevich

i.f.n., prof. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Annotatsiya: Mazkur maqolada yashil iqtisodiyotni rag‘batlantirishda soliq munosabatlarining ahamiyati tahlil qilinadi. O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar va jahon tajribasiga tayanib, ekologik soliq mexanizmlari hamda soliq imtiyozlarining iqtisodiy rivojlanishga ta’siri yoritiladi. Shuningdek, yashil iqtisodiyotga oid soliq tizimining samaradorligini oshirish bo‘yicha takliflar beriladi.

Kalit so‘zlar: yashil iqtisodiyot, soliq imtiyozlari, ekologik soliq, uglerod solig‘i, iqtisodiy rag‘batlantirish.

Аннотация: В данной статье анализируется значение налоговых отношений в стимулировании зеленой экономики. Опираясь на проводимые в Узбекистане реформы и мировой опыт, рассматриваются механизмы экологического налогообложения и влияние налоговых льгот на экономическое развитие. Также приводятся предложения по повышению эффективности налоговой системы в сфере зеленой экономики.

Ключевые слова: зеленая экономика, налоговые льготы, экологический налог, углеродный налог, экономическое стимулирование.

Annotation: This article analyzes the importance of tax relations in stimulating the green economy. Based on the reforms being implemented in Uzbekistan and global experience, it examines the mechanisms of environmental taxation and the impact of tax incentives on economic development. Additionally, proposals are presented to improve the efficiency of the tax system in the field of the green economy.

Keywords: green economy, tax incentives, environmental tax, carbon tax, economic stimulation.

KIRISH

XXI asrda ekologik muammolar va iqlim o‘zgarishi global iqtisodiy jarayonlarga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu sababli dunyo mamlakatlari yashil iqtisodiyotni rivojlantirish bo‘yicha strategiyalar ishlab chiqmoqda. Bu jarayonda soliq tizimi muhim omillardan biri bo‘lib, ekologik barqarorlikka erishish uchun rag‘batlantiruvchi choralar qo‘llanmoqda. O‘zbekistonda ham ushbu yo‘nalishda bir qator soliq islohotlari amalga oshirilmoqda.

ASOSIY QISM

Yashil iqtisodiyotning mohiyati va ahamiyati

Yashil iqtisodiyot bu — atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan tejab foydalanish va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan iqtisodiy tizimdir. Unda:

- Ifloslanishni kamaytirish;
- Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni oshirish;
- Energiyani tejavchi texnologiyalarni joriy qilish asosiy maqsadlar qilib belgilanadi.

1. Yashil iqtisodiyotni qo‘llab-quvvatlashda soliq tizimining o‘rni

Yashil iqtisodiyotni rivojlantirish uchun davlat tomonidan soliq imtiyozlari va ekologik soliq stavkalari joriy etilmoqda.

Xususan:

- Ekologik toza texnologiyalarga investitsiya kiritgan korxonalar uchun soliq yengilliklari;
- Kam uglerodli ishlab chiqarishni qo‘llab-quvvatlash uchun imtiyozli kredit va grantlar;
- Atmosferaga zararli chiqindilar chiqaruvchi subyektlarga uglerod solig‘ini joriy qilish.

2. O‘zbekistondagi huquqiy asoslar

2023-2024-yillarda qabul qilingan muhim Prezident qarorlari va farmonlar:

1. 2022-yil 2-dekabrdagi PQ-436-son qaror [1]

“2030 yilgacha O‘zbekistonning “yashil” iqtisodiyotga o‘tishi bo‘yicha strategiya” asosida quyidagi maqsadlar belgilangan:

- Qayta tiklanuvchi energiya manbalarining ulushini oshirish;
- Issiqxona gazlarini kamaytirish;
- Energiyani tejavchi texnologiyalarni joriy etish.

2. 2023-yil 25-oktabrdagi Vazirlar Mahkamasining 561-son qarori [2]

“Milliy “yashil” iqtisodiyot taksonomiyasi”. Bu qaror yashil faoliyat turlarini tasniflash va ularni moliyalashtirish mezonlarini belgilaydi.

3. 2023-yil 29-sentabrdagi Vazirlar Mahkamasining 517-son qarori [3]

Yashil iqtisodiyotni boshqarish bo‘yicha maxsus bo‘linmalar tashkil qilish.

Yashil iqtisodiyotni rag‘batlantirishda soliqqa tortish

Bugungi kunda yashil iqtisodiyot uchun soliq tizimi quyidagilarni qamrab oladi:

Ekologik soliqlar:

- 2023 yildan havo ifloslanishi uchun chiqindilarni kamaytirish maqsadida yangi ekologik soliqlar joriy qilindi [4]

Soliq imtiyozlari:

- Qayta tiklanuvchi energiya manbalarini joriy qilgan korxonalar uchun soliq stavkasi kamaytirildi.

Investitsiyalarni rag‘batlantirish:

- Yashil loyihalar uchun soliq qaytimlari va foizsiz kreditlar taqdim etilmoqda.

Hususan, “yashil iqtisodiyot” soliq sohasida to‘liq o‘rganishda xalqaro tajribalarda bir necha davlatlar miqyosida ko‘rish mumkin.

3. O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotga oid soliq islohotlari

O‘zbekiston Respublikasi 2019-yildan boshlab yashil iqtisodiyotni rivojlantirish bo‘yicha bir qancha strategik hujjatlarni qabul qildi. Jumladan:

- 2021–2030-yillarga mo‘ljallangan Yashil iqtisodiyot konsepsiyasi
- 2023-yilda qabul qilingan ekologik soliq islohotlari [5]
- Quyosh va shamol energiyasini rivojlantirishga yo‘naltirilgan imtiyozlar [6]

1-jadval.

O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotni rag‘batlantirish bo‘yicha amalga oshirilgan soliq islohotlari va ularning natijalari [7]

/r	Y il	Islohot mazmuni	Natija
	2 019	Ekologik soliq stavkalarining oshirilishi	Korxonalarning chiqindilarni kamaytirishiga sabab bo‘ldi
	2 021	Yashil iqtisodiyot konsepsiyasi qabul qilindi	Qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish tezlashdi
	2 023	Yashil energiya loyihalariga soliq imtiyozlari	Quyosh va shamol elektr stansiyalarining soni ortdi

Yuqoridagi jadval O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotni rivojlantirishga qaratilgan asosiy soliq islohotlarini ko‘rsatib beradi.

4. Jahon tajribasi va O‘zbekiston uchun tavsiyalar [8]

Jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, rivojlangan davlatlar yashil iqtisodiyotni rag‘batlantirishda turli xil soliq mexanizmlaridan foydalanmoqda:

- Germaniya va Skandinaviya davlatlarida uglerod solig‘i,
- AQSh va Kanada yashil texnologiyalar uchun grant va kreditlari,
- Xitoy esa yashil obligatsiyalar bilan ekologik loyihalar rivojiga yo‘l ochib berdi.

O‘zbekiston uchun quyidagi tavsiyalar dolzarb hisoblanadi:

1. Uglerod solig‘ini bosqichma-bosqich joriy etish.
2. Yashil energiya loyihalarini yanada keng qo‘llab-quvvatlash.
3. Ekologik sertifikatlangan mahsulotlar uchun soliq imtiyozlarini kuchaytirish.

O‘zbekistonning istiqbolli loyihalari

- Qayta tiklanuvchi energiya manbalari uchun 15 GVt quvvatni oshirish;
- Sanoatda energiya tejovchi texnologiyalarni keng joriy qilish;
- Qishloq xo‘jaligida suv tejovchi texnologiyalar uchun imtiyozlar joriy qilish.

2-jadval.

O‘zbekiston istiqbolli maqsadlari asosida 2030-yilgacha amalga oshirilishi rejalashtirilgan maqsadlar jadvali [9]

/r	Maqsad	Ko‘rsatgich	Muddat
	Qayta tiklanuvchi energiya ulushi	Elektr ishlab chiqarishda 30 foizga	2030-yil
	Issiqxona gazlari chiqindilarini qisqartirish	35 foizga gaz chiqindilarini qisqartirish	2030-yil
	Energiya tejamkor texnologiyalarni joriy qilish	Barcha sanoat korxonalarida	2030-yil

Ushbu jadvaldan ko‘rish mumkinki O‘zbekistonning 2030-yilgacha amalga oshirilishi ko‘zda tutilayotgan istiqbolli maqsadlari ifodalangan.

Asosiy maqsadlar quyidagilardan iborat: elektr ishlab chiqarishda qayta tiklanuvchi energiya manbalari ulushini 30 foizga yetkazish, issiqxona gazlari chiqindilarini 35 foizga qisqartirish hamda barcha sanoat korxonalarida energiya tejamkor texnologiyalarni joriy qilish.

Bu maqsadlar mamlakatning barqaror rivojlanishini ta’minlashga qaratilgan muhim qadamlardir.

Ushbu holatlarni hozirda rivojlanishdagi muammolar va to‘siqlari quyidagilardan iborat:

1. Soliq siyosati hali yetarlicha samarali emas.
2. Moliyaviy resurslarning yetishmasligi.
3. Jamoatchilikning past darajadagi xabardorligi.

Mavjud to‘siq va muammolarni bartaraf etishda tavsiyalar

1. Ekologik soliqlarni kengaytirish Karbon chiqindilari uchun yuqori soliq stavkalari joriy etish;
2. Xususiy sektorni jalb qilish investorlar uchun soliq qaytimlari va imtiyozlar berish.
3. Aholini xabardor qilish yashil iqtisodiyotning ahamiyati haqida ma’lumot kampaniyalari o‘tkazish.

UMUMIY XULOSA

Yashil iqtisodiyotni rivojlantirishda soliq tizimining roli muhim ahamiyatga ega. O‘zbekiston Respublikasi ekologik barqarorlikni ta’minlash maqsadida qator soliq islohotlarini amalga oshirmoqda. Jahon tajribasini o‘rganish orqali mamlakatimizda yashil iqtisodiyotni qo‘llab-quvvatlashning samarali yo‘llarini ishlab chiqish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrda 2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risidagi PQ-436-son qarori <https://lex.uz/docs/6303230>
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 25-oktyabrda Milliy “yashil” iqtisodiyot taksonomiyasini tasdiqlash to‘g‘risidagi 561-son qarori <https://lex.uz/ru/docs/6644013>
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 29-sentyabrda “Yashil” iste‘mol krediti bo‘yicha foiz to‘lovlarining bir qismini qoplab berish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqidagi 517-son qarori <https://www.lex.uz/ru/docs/6623323>
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 31-mayda Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasini transformatsiya qilish va vakolatli davlat organi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida PF-81-son Farmoni <https://lex.uz/docs/-6479180>
5. O‘zbekiston Respublikasining “Soliq va byudjet siyosatining 2023-yilga mo‘ljallangan asosiy yo‘nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risidagi” 2022-yil 30-dekabrda O‘RQ–812-son Qonuni (Qonunchilik palatasi tomonidan 2022-yil 27-dekabrda qabul qilingan Senat tomonidan 2022-yil 28-dekabrda ma‘qullangan) <https://lex.uz/ru/docs/-63332461>
6. Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish to‘g‘risidagi 2019-yil 21-mayda O‘RQ–539-son Qonuni (Qonunchilik palatasi tomonidan 2019-yil 16-aprelda qabul qilingan Senat tomonidan 2019-yil 3-mayda ma‘qullangan) <https://lex.uz/docs/-434683>
7. OECD (Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti) ekologik soliq siyosati bo‘yicha tahlillar <https://www.oecd.org/>
8. Jahon bankining yashil iqtisodiyot bo‘yicha 2022-yilgi hisobotlar yuzasidan chop etilgan jurnalning avgustdagi nashri <https://openknowledge.worldbank.org/server/api/core/bitstreams/6eb1bd1d-fe22-5ca3-acd0-87073c96488d/content>
9. International Energy Agency (IEA) hisoboti, 2023-yil (3-noyabrda nashr) <https://www.iea.org/reports/world-energy-outlook-2023>